



SOTSIOLINGVISTIKADA IJTIMOIY VARIATIVLIK MUNOSABATI

Hasanova Dilfuza Odilovna

Q‘o‘qon DU dotsenti,

Yo‘lchiyeva Nozanin

Q‘o‘qon DU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tildagi variativlik hodisasi va uning sotsiolingvistik mazmuni yoritilgan. Asosiy e’tibor til tizimidagi teng huquqli variantlarning tabiiy mayjudligi va ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi omillarga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, nutq, variativlik, sotsiolingvistik, tizim, xususiyat, element, ijtimoiy, birlik.*

Annotation: *This article examines the phenomenon of language variation and its sociolinguistic content. The main focus is on the natural existence of equal variants in the language system and the factors that cause their emergence.*

Key words: *language, speech, variability, sociolinguistic, system, feature, element, social, unit.*

Tilda bir lisoniy birlikning teng huquqli ikki yoki undan ortiq variantlarining mavjud bo‘lishi tabiiy holdir. Bunday variantlar odatda bir xil maqomga ega bo‘lib, ularning ishlatilishi gapiruvchining maqsadiga ko‘ra tanlab olinadi. Aynan ana shunday variantlar paydo bo‘lishi tilning tabiiy rivojlanish jarayonida yuz beradigan hodisa bo‘lib, u lisoniy va nolisoniy omillar ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Bu esa tildagi variativlik xususiyatini namoyon qiladi.

Variativlik muammosini bayon qilishda biz variativlik hodisasi til tizimining ontologik xususiyatidir, degan postulatga tayanamiz. J. Bagana, Ye.V. Bondarenko, O.O. Chernovalar til tizim sifatida uning ishlashiga ta’sir ko‘rsatib unga sabab bo‘ladigan bir qator xususiyatlarga ega deb yozishadi. Bunday til xususiyatlariga eng avvalo uning variativligini kiritish lozimdir: til tizimi shunday yaratilganki, undagi har bir til birligining o‘ziga xos variantlari mavjud. Bu variantlar muayyan til birligi doirasida namoyon bo‘lib, ularning ishlatilishi aynan shu til birligi mansub bo‘lgan til sathi bilan belgilanadi. Ya’ni, masalan, fonetik darajadagi bir birlikning variantlari faqat fonetik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Demak, tildagi har bir element o‘ziga xos variantlarga ega bo‘lib, ular aynan shu elementning tabiatini bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Variativlik lisoniy birliklarning o‘zgaruvchanlikka moyilligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda ushbu birliklarning o‘zgaruvchanligi ularning tegishli identifikatsiyasiga va dastlabki lisoniy birligi bilan bir-biriga bog‘lanishiga to‘sinqilik qilmaydi.

U. Labovning ishlarida mazkur lisoniy variativlikning quyidagi xususiyatlari qayd etilgan:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



1) tildagi har bir me'yor doirasidagi variant nutq sharoitiga bog'liq ravishda ishlataladi. Ya'ni uslub, janr, rasmiylik darajasi kabi omillar ta'sirida turli variantlardan foydalaniladi;

2) gapiruvchi aniq tuzilishga ega bo'lgan variantlar yoki eng qulay shakllarni tanlash orqali nutqida vaziyatga moslashadi;

3) turli nutq uslublari uchun bitta til birligining turlicha variantlari xosdir;

4) qo'llaniladigan variantlar gaplashuvchilarning ijtimoiy belgilari hamda nutqiy kontekstning stilistik xususiyatlari bilan bog'liq (nutqiy muloqot vaziyatidan) bog'liq ijtimoiy lingvistik o'zgaruvchi mikdor sifatida aniqlanadi.

Variativlikni nemis tilshunoslari individual nutqiy aktlar emas, balki so'zlashuvchilarning muayyan guruhiiga xos bo'lgan, ijtimoiy bog'langan til qo'llanishining shakllari va usullari deb izohlashadi o'zaro. K.Naringzning ta'kidlashicha, til variantlari mavjudligining manbalari va sabablari hagidagi masala, albatta, va jamiyatning o'zaro munosabatlarini aniqlashga olib keladi. Har qanday til jamoatida ijtimoiy xususiyatlar bilan bir gatorda til xususiyatlari jihatidan ham birbiridan farglanadigan turli guruhlar mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, turli kommunikativ vaziyatlarda kommunikativ akt qatnashchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarga bog'liq bolgan turfa til variantlari ham qo'llaniladi.

E'tirof etish joizki, barcha til jamoatlari va tillar uchun universal bo'lgan vaziyatlar va shakllarning to'plami mavjud emas. Tilning ichki differensiatsiyasi jamiyat ijtimoiy strukturasining oqibati va ifodasi hisoblanadi. Til va nutning ijtimoiy variativligi ikki: stratifikasion va vaziyat o'lchovlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Stratifikasion (lot.stratum-'qatlam'+facere-'qilmoq') variativlik to'g'ridan to'g'ri jamiyatning ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq bo'ladi? Amerikalik sotsiolingvist U. Labovning "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikasiyasini" nomli asarida ijtimoiy variativlikning ikki tomonlama tabiatini hamda stratifikasion va vaziyatli variativlik o'rtasidagi o'zaro aloga atroflicha yoritib berilgan. Labov variativlik ikki xil turning "doimiy modeli"ni aniqlashga muvaffaq bolgan. Bir tomondan, ayrim nutiy ko'rsatkichlar va ijtimoiy struktura (ayni nutqiy kontekstda quyi ijtimoly tabagaga mansub bolgan informantlar yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub bolgan informantlarga nisbatan noadabiy shakllardan keng foydalagan) o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik belgilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, barcha informantlarda rasmiy holatlarda adabiy shakllarni go'llash ko'rsatkichini ortgani qayd qilingan" Demak, stratifikasion va vaziyatli variativlik o'rtasida chambarchars o'zaro aloga mavjud. Shuningdek, Labov ijtimoly variantlar (lisoniy hamjamiyatningqatlam va guruhlari)ni so'zlashurchi ijtimoiy xarakteristikasining ko'rsatkichi deb ta'riflaydi.

Ijtimoiy variativlik hodisasini Buyuk Britaniya misolida yaqqol ko'rish mumkin. Buyuk Britaniyada Estuary English (EE) (Londondagi past ijtimoy qatlam vakillarining so'zlashuv tili), Kokni (Cockney- ma'lumoti kam bo'lganlar tomonidan norasmiy doiralarda qo'llanuvchi London dialektining varianti) va Received Pronunciation (RP) (Londondagi oliy ijtimoy tabaqa vakillarining tili) kabi variantlar mayjud. Ba'zan RP egasi o'zining ijtimoiy holatini oshkor qilishdan qochib, o'z nutgida Kokniga xos bo'Igan tubandagi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



fonetik xususiyatlarni ishlatadi: a) "Y" tushiraladi: wha(?) - what (nima), Li(?)le - little (kichkina); " " vokallashadi: hi(w)-hill (tyepalik), mi(w)k- milk (sut)?

Variativlik nutqiy kommunikatsiyaning barcha darajalarida – turli til vositalarini bilishdan tortib, to so‘zlashuvchining bir tilga tegishli turli fonetik va urg‘u variantlariga yo‘l qo‘yilishini tushunib yetishigacha bo‘lgan darajalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, Toshkent shahrida piyola so‘zini ikki xil tatalaffuz qilish kuzatiladi: “pila” va “pela”. Bu fonetik variativlikka misol bo‘ladi. Yoki Farg‘onada narvon o‘rniga shoti, Xorazmda sabzi o‘rniga gashir so‘zlarining qo‘llanilishi leksik variativlikka misol bo‘ladi.

Ijtimoiy variativlik quydagilar bilan bog‘liq:

Demografik omillar (yosh, jins, millat, hududiy farqlar); Ijtimoiy-iqtisodiy holat (daromad, kasb, ta’lim darajasi); Madaniy va diniy xilma-xillik; Shaxsiy hayot tarzi va qadriyatlar.

Ijtimoiy variativlikka oid misollar:

1. Yoshga bog‘liq variativlik

Keksalar: "Bolam, uyingga salomat yetib ol!"

Yoshlar: "Qalesan, bro? Yaxshimisan?"

2. Kasbga oid variativlik

Huquqshunos: "Mazkur holat Jinoyat Kodeksining 109-moddasiga muvofiq baholanadi."

Quruvchi: "Mana bu yerga beton quyamiz, armatura tayyor bo‘lsin."

3. Ijtimoiy mavqega bog‘liq variativlik

Universitet professori: "Bugun biz diskursiv metodologiyani tahlil qilamiz."

Oddiy ishchi: "Ishga erta keldim, ammo ustanning o‘zi kechikdi."

4. Hududiy va ijtimoiy aralash variativlik

Toshkentdagi oliy ma’lumotli shaxs: "Bugungi ilmiy konferensiyada qatnashishim kerak."

Qishloqdagi oddiy fuqaro: "Bugun yig‘inda so‘zga chiqdim, gapimni eshitishdi."

5. Jinsga oid nutq farqlari (ba’zida ijtimoiy variativlik bilan bog‘liq bo‘ladi)

Ayol kishining iborasi: "Do‘konga chiqib, bir oz sabzavot olib kelaman."

Erkak kishining iborasi: "Bozorga chiqib kelaman, kerakli narsani olib."

Xulosa:

Maqlada til tizimining tabiiy variativligi – uning doimiy o‘zgaruvchanligi va moslashuvchanligi sifatida baholanadi. Til jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy omillar ta’sirida doimiy ravishda turlicha shakllarda namoyon bo‘ladi. Har bir ijtimoiy guruh, hudud yoki shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan kishilar tilni o‘z ehtiyojlari asosida farqli variantlarda qo‘llaydi. Bu esa sotsiolingvistikada ijtimoiy variativlikning mavjudligini va uning til rivojidagi muhim rolini tasdiqlaydi. Tilda yagona “to‘g‘ri” shakl emas, balki nutqiy ehtiyojga mos bo‘lgan ko‘p variantlilik mavjudligi tabiiy hodisa sifatida e’tirof etiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bagana J., Bondarenko Ye.V., Chernova O.O. Tadqiqot uchun nazariy asos Til o'zgarishi muammolari // Ilmiy yangiliklar. Gumanitar fanlar seriyasi, 2012. – No 6 (125). – 13-son. – B. 41-49.
2. Labov U. Tilni ijtimoiy kontekstda o‘rganish // Tilshunoslikda yangilik. - M., 1975. – Nashr. 7. – B. 96-181.
3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001.
4. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Chymarers. Ananus взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. -М., 1975.
5. Hymes D. On Communicative Competence. Original paper. 1971.



818

